

| Fan platformasi  |   |                               |
|--|---|-------------------------------|
| <b>Fanning to'liq nomi:</b> Akademik savodxonlik   |   |                               |
| <b>Fan kodi:</b> AKSA3504  | <b>Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):</b> 4   | <b>davomiyligi:</b> 1 semestr |
| <b>Kafedra:</b> O'zbek tili va professional ta'lim   |   |                               |
| <b>Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun:</b><br>60112400 - Professional ta'lim: Kimyoviy texnologiya   |   |                               |
| <b>Fan amaliyot o'qituvchilari:</b> dots. Tavaldiyeva G.N.   |   |                               |
| <b>Fanga ajratilgan umumiy soatlar:</b> 120  | Email: <a href="mailto:gulbahor_tavaldiyeva@mail.ru">gulbahor_tavaldiyeva@mail.ru</a> . |                               |
| Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): - fan bo'yicha seminar mashg'ulotlari yo'q.   |   |                               |
| <b>Prerekvizitlar:</b> Quyi ta'lim bosqichlaridagi O'zbek tili fani. Tilning fonetik, orfoepik xususiyatlari, leksika, grammatika, stilistika haqida tushuncha.  |   |                               |
| <b>Tanlov turi:</b> Tanlov fan umumta'lim kadrlarni tayyorlash   |   |                               |
| <p><b>Fanning qisqacha bayoni:</b> "Akademik savodxonlik" fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan fan hisoblanib, 3-kursda o'qitiladi. Mazkur fan gumanitar fanlar turkumiga kiradi. Fanni puxta o'zlashtirish nazariy va amaliy materiallarni bilish bilan birga, talabalarning akademik savodxonlik ko'nikmalarini egallash, tilda ilmiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish – akademik yozuv malakalarini puxta egallagan bo'lishi zarur.</p> |   |                               |

**Fanning maqsadi:** akademik nutqning o'ziga xosligini hisobga olgan holda talabalarda o'z fikrlarini tizimli bayon qilish, turli ilmiy va ilmiy-axboriy matnlarni tuza olish, bo'lajak kasbiy faoliyatlarida qo'llanadigan og'zaki va yozma til vositalaridan samarali foydalana olish, shu orqali akademik savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularda ilmiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, ilmiy nutq madaniyatini egallashlariga erishish. Bu orqali talabalarda ilmiy uslubda fikrlash va o'z fikrini og'zaki va yozma nutqda ravon bayon etish, ilmiy matn tuzish usul va metodlari, ilmiy uslubning turli janrlari - taqriz, referat, taqdimot, ilmiy sharh matnlarining tayyorlanish va rasmiylashtirilishni o'rgatish, shuningdek, o'quv va ilmiy matnlarni yozish bo'yicha amaliy bilim, ko'nikma va ular bilan ishlash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

- Asl bayonotni idrok etishga yordam beruvchi matnni tahlil qilish texnikasiga ega bo'ladi;
- Matn bilan ishlashni biladi, shu jumladan maxsus adabiyotlar va kompyuter tarmoqlari ichidan kerakli ma'lumotlarni qidirishni biladi;
- Maxsus tanlangan kasbga yo'naltiruvchi matnlar asosida atamaviy bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi hamda rivojlantiradi, mutaxassislikka oid matndan kerakli ma'lumotlarni ola biladi, ta'riflaydi, umumlashtiradi va professional muloqot jarayonida foydalana oladi;
- Ilmiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradigan ilmiy adabiyotdan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladi, ilmiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyatlarini biladi; ilmiy matn tuzish usul va metodlarini haqida tasavvur va bilimga ega bo'ladi.

**Ma'ruza mashg'ulotlari** katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

### **Amaliy mashg'ulotlar**

Amaliy mashg'ulotlarda nazariy bilimlar mavzuga oid masalalar yechish orqali mustahkamlanadi. "Akademik savodxonlik" fanini o'zlashtirish uchun talaba fanning har bir mavzusini mustaqil o'rganishi masq va topshiriqlar yechish orqali mustahkamlashi zarur. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar o'tilgan ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashqlar bajarish orqali yanada boyitadilar, berilgan mavzulardan mustaqil ishlar bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

-amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;

-o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;

-talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;

-talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

### **Mustaqil ta'lim**

Talabani "Akademik savodxonlik" fanidan mustaqil ta'lim ishining asosiy maqsadi – bo'lajak mutaxassislarni respublikamizda olib borilayotgan davlat siyosatidan xabardor qilish, ular ongida milliy qadriyat asoslarini shakllantirish; kafedra jamoasi rahbarligi va uzluksiz nazorati ostida talabada muayyan o'quv vazifasi va topshiriqlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdir.

Uy vazifalarini bajarish, qo'shimcha darslik va boshqa o'quv adabiyotlarini mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni axborot resurs markazlaridan izlash, internet tarmoqlaridan foydalanib fanga oid meyoriy hujjatlarning elektron nusxalarini to'plash, ularni o'rganish, shular asosida mavzuga oid taqdimotlar tayyorlash va o'tkazish; korxonada hujjatlarini mustaqil tayyorlash, hujjat matnini yaratish. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o'zlashtirganligi joriy, oraliq va yakuniy baholashlarda o'z aksini topadi. Shu sababli baholash tizimida mustaqil ishlarga alohida baho ajratilmaydi, ular JB, OB va YaB baholari tarkibiga kiritilgan.

| <b>№</b> | <b>Fan mavzulari</b>  | <b>Ma'ruza mashg'ulot soatlar hajmi</b> | <b>Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi</b> | <b>Mustaqil ta'lim soatlari</b> |
|----------|---|---|--|---------------------------------|
| 1        | <b>"Akademik savodxonlik" fanini o'qitishning maqsad va vazifalari. Til va yozuv masalalari. Akademik savodxonlik va yozuv.</b> |   |  |                                 |
| 1.1      | Kasbiy ta'limda akademik savodxonlikning o'rni. "Aqliy hujum" asosida bahs-munozara.  |   |  |                                 |

|             |  |           |           |           |
|-------------|--|-----------|-----------|-----------|
| <b>2</b>    | <b>O'zbek tilining imlo qoidalari. Harflar imlosi. Qo'shib, ajratib va chiziqcha bilan yozish qoidalari. Bosh harflar imlosi. Tinish belgilari imlosi.</b> |           |           |           |
| 2.1         | O'zbek tilining imlo qoidalarini o'zlashtirish bo'yicha soha matnlari ustida ishlash.  |           |           |           |
| <b>3</b>    | <b>O'zbek adabiy tili va nutq me'yorlari. Nutqni bayon qilish usullari. Kasbiy nutq.</b>   |           |           |           |
| 3.1         | Nutqiy va imloviy savodxonlik. Matnlarda o'zbek adabiy tili va nutq me'yorlari.  |           |           |           |
| <b>4</b>    | <b>Nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning o'ziga xos xususiyatlari.</b>  |           |           |           |
| 4.1         | Nutq uslublarni qo'llash amaliyoti.  |           |           |           |
| <b>5</b>    | <b>Mutaxassis nutqining kommunikativ xususiyatlari.</b>  |           |           |           |
| 5.1         | Mutaxassis nutqining kommunikativ xususiyatlari.   |           |           |           |
| <b>6</b>    | <b>Zamonaviy professional muloqot uslubi va leksikasi.</b>   |           |           |           |
| 6.1         | Professional muloqot tili va yozuvi.   |           |           |           |
| <b>7</b>    | <b>Matn haqida tushuncha. Ilmiy matn turlari.</b>  |           |           |           |
| 7.1         | Ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilish va tahlil qilish.   |           |           |           |
| <b>8</b>    | <b>Matn yaratish usullari. Ilmiy matn tayyorlash jarayoni.</b>   |           |           |           |
| 8.1         | Ilmiy matn turlari ustida ishlash (reja, tezis, annotatsiya, kirish, xulosa).  |           |           |           |
| <b>9</b>    | <b>Akademik matn tili. Matnni tahrir qilish yo'llari.</b>  |           |           |           |
| 9.1         | Matnni kengaytirish va qisqartirish. Matnga so'z tanlash va qo'llash ustida ishlash.   |           |           |           |
| <b>10</b>   | <b>Akademik yozuv va uning xususiyatlari.</b>  |           |           |           |
| 10.1        | Kalit so'zlar. Ilmiy matnlarga kalit so'zlarni tanlash.  |           |           |           |
| <b>11</b>   | <b>Akademik yozuvning asosiy janrlari (annotatsiya, referat, taqriz, analitik sharh, ilmiy xabar). Annotatsiya va referat.</b>                             |           |           |           |
| 11.1        | Annotatsiya va referat matnlarini o'rganish. Referat, taqriz, analitik sharh, ilmiy xabar yaratish amaliyoti.  |           |           |           |
| <b>12</b>   | <b>Taqdimot tayyorlash savodxonligi.</b>   |           |           |           |
| 12.1        | Taqdimot matnini tayyorlash. Mb PowerPoint da mavzu taqdimotini tayyorlash. Taqdimotda axborotning og'zaki shaklda yetkazilishi.                           |           |           |           |
| <b>Jami</b> |  | <b>24</b> | <b>24</b> | <b>72</b> |

## Asosiy adabiyotlar

1. Muhiddinova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 304 b.
2. I.T.Boltaboyeva. O‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent. 2020. - 258 b. Jiyanova N., Mo‘minova O., Maksumova S. Nutq madaniyati. Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2016. I-kitob.
3. Tavalдиеva G. O‘zbek tilida akademik va texnik muloqot. Uslubiy qo‘llanma. TKTI, Toshkent, 2023.

## Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni (yangi tahrirda) / O‘zR Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1989. 26-28-son, 453-modda; 1991. 11-son, 273-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari.to‘g‘risida”gi PQ-5850-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni.
5. Tog‘ayev T.M., Tavaldiyeva G.N., Akromova M. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. –Toshkent: “Sharq”, 2015. 431 b.
6. Tavaldiyeva G.N., Quraqova Sh. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi”. Oquv-uslubiy qo‘llanma. T., TKTI, 2021.

## Internet saytlari

1. <https://n.ziyouz.com/kutubxona> – Ziyouz.com kutubxonasi.
2. <https://lex.uz/uz/> – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
3. <https://www.gov.uz/uz> – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
4. <https://www.edu.uz/uz> – O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
5. <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> - Самоучитель узбекского языка.
6. [http://sahifa.tj/russko\\_uzbekskij\\_razgovornik.aspx](http://sahifa.tj/russko_uzbekskij_razgovornik.aspx) - Русско-узбекский разговорник.

**Kontakt soatlari:** mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma’lumotlar va turli materiallar bo‘yicha savollarga quyidagi grafik asosida o‘qituvchiga murojat qilishingiz mumkin:

| O‘qituvchining F.I.Sh. | Kun      | Vaqt          | Xona            |
|------------------------|----------|---------------|-----------------|
| 1. Tavaldiyeva G.N.    | Dushanba | 12:00 – 16:00 | S.D/60 109 xona |